INSON XARAKTERINI IFODALOVCHI KASALLIK NOMLARI

Baxronova Matluba Axmedovna, BuxDPI,Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
matlyuba.bakhranova@gmail.com

Annotatsiya. Kasallik bu organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta’sir etganda ro‘y beradigan patologik jarayon-bu kasallik so‘ziga berilgan ilmiy ta’rifdir. Kasallik nomlari turlicha bo‘lib har biri o‘z simptomlariga egadir. Ammo og‘zaki va yozma badiiy nutqda kasallik nomlari o‘zgacha ma’no kasb etadi. Ushbiu maqola inson xarakterini ifodalovchi kasallik nomlari haqida bo‘lib, unda O‘zbek tilining izohli lug‘atidan olingan kasallik nomlarining o‘z va ko‘chma ma’nolari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasallik, xarakter, maraz, dabba, churra, og‘riq, cho‘loq, isitma

НАЗВАНИЯ БОЛЕЗНЕЙ, ОТОБРАЖАЮЩИЕ ХАРАКТЕР ЧЕЛОВЕКА

Бахронова Матлюба Ахмедовна, старший преподаватель кафедры иностранных языков БухГПИ, matlyuba.bakhranova@gmail.com

Аннотация. Болезнь – это патологический процесс, возникающий при воздействии на организм вредных факторов внешней или внутренней среды – таково научное определение слова болезнь. Названия болезней разные и каждая из них имеет свои симптомы. Но в устной и письменной художественной речи названия болезней приобретают иной смысл. В данной статье речь идет о названиях болезней, выражающих характер человека, и в ней собраны оригинальные и переносные значения названий болезней, взятые из толкового словаря узбекского языка.

Ключевые слова: заболевание, характер, заболевание, сыпь, грыжа, боль, хромота, лихорадка.

DISEASE NAMES REPRESENTING HUMAN CHARACTER

Bakhronova Matluba Akhmedovna, senior teacher of the Department of Foreign Languages, BukhSPI, matlyuba.bakhranova@gmail.com

Abstract. A disease is a pathological process that occurs when an organism is affected by harmful factors of the external or internal environment - this is the scientific definition of the word disease. The name of the disease is different and each of them has its own symptoms. But in oral and written artistic discourse, the names of diseases acquire a different meaning. This article is about the names of diseases that express the character of a person, and it contains the original and figurative meanings of the names of diseases taken from the explanatory dictionary of the Uzbek language.

Key words: disease, character, disease, rash, hernia, pain, lameness, fever

Kirish. Kasallik mavzusi - tanadagi ruhiy buzilishning metaforasi sifatida yoki ijtimoiy kasalliklar ramzi sifatida - zamonaviy adabiyotda keng tarqalgan. Kasalliklar tarqalishi adabiyotda yangi sahifani ochdi, Chunki yozuvchilar har kuni oddiy hayotning ajralmas qismiga aylanib ketadigan kasallikka duch kela boshladilar.

Kasallik yoki kasallikni adabiyotga kiritish g‘oyasi badiiy adabiyot yaratilishi boshidanoq biz bilan bo‘lgan. Masalan, jinnilik tushunchasini olaylik: har doim Gomer, Servantes va Shekspir asarlaridan olingan jinnilikning hikoyali satrlari bo‘lgan. Shu tariqa og‘zaki va badiiy nutqda kasallik nomlari nafaqat o‘z ma’nosida, balki ko‘chma , badiiy ma’nolar ham kasb eta boshladi, bu albatta har bir kasallikning simptomlari, o‘ziga xos xususiyatlari inson xarakteriga mos ravishda qo‘llaniladigan bo‘ldi, bunda kasallik nomlari so‘kish, qarg‘ish, yoki shunga o‘xhsash salbiy ma’noda ishlatiladi.

Inson xarakterini ifodalovchi kasallik nomlari tadqiq qilinganda quyidagi so‘zlar ishlatilishi ochiqlandi, xususan, garang, , dabba, kuydirgi, maraz, moxov, xafagazak, xafaqon, yurakburug‘, quturish, so‘zlari antropominant birlik hisoblanadi. Ushbu so‘zlarni birma bir tahlil qiladigan bo‘lsak, bezgak bu- 1. Vaqti-vaqti bilan isitma chiqarib, qaltiraydigan yuqumli kasallik. Masalan,

Saratonning ayni qizg‘in kunlarida bezgak avj oldi. H.G‘ulom, Feruza

Ota bezgakdan qaltirab,goh muzlab, goh o‘t bo‘lib yonib , alahsirab yotardi. M.Mahmudov, Mangu kuy izlab.

2.Bezgak kasalligi bilan og‘rigan odam.Bunga misol qilib Oybekning “Qutlug‘ qon”asaridan olingan parchani keltirish mumkin:

Nuri bu voqeaning uchini eshitgan hamon bezgakday qaltirab ketdi.

Yoki boshqa bir misolda :

Tutqanoq

1. Davriy ravishda to‘satdan tutib qoladigan, kishi hushidan ketib, akashak bo‘lib qoladigan, bedavo asab kasalligi; quyonchiq, epilepsiya.

Tutqanog‘i bor odam. Tutqanoq kasalligi.

Salim vahimaning tutqanog‘i yana boshlandi. Asabi juda chatoq ekan bolaning. *A. Muxtor, Chinor*

2. Shunday kasalga yo‘liqqan odam.

boshog‘riq

1. Boshda og‘riq sezish kasalligi.

Boshog‘rig‘ingiz boshlansa, bir-ikki kun ishga chiqmasangiz ham mayli. *S. Ahmad, La’li Badaxshon*

2. *ko‘chma* **Ortiqcha yuk, boshga balo, tashvish, dardisar.**

Bu Tolibni nima qilsam ekan? Rosa boshog‘riq bo‘ldi-ku. *S. Ahmad, Jimjitlik*

BOSHOG‘RIQ so‘zi qatnashgan jumlalar:

Boshog‘riq gaplar

Keraksiz, ma’nosiz, noo‘rin, jig‘ga tegadigan gaplar.

Boshog‘riq qilmoq

Spirtli ichimliklarni ko‘p ichgandan keyin ertasiga ertalab yana bir oz ichib olmoq.

miyasi g‘ovlab, bir boshog‘riq qilgisi ham kelib ketdi-yu, tiyildi. *A. Muxtor, Kumush tola*

Lekin o‘zimda boshog‘riq qilishga ham pul qolmadi. *Shukrullo, Saylanma*

cho‘loq

1. Oyog‘i mayib; oqsoq.

Cho‘loq kishi. Cho‘loq qush. Cho‘loq bo‘lsang ham, no‘noq bo‘lma.

Ibroyim cho‘loqning so‘zlaridan so‘ng uzunquloq mahobatlar urchigani muqarrar. *M. M. Do‘st, Lolazor. Juvonning eri*

Cho‘loq bo‘lsa, devor oshib, o‘g‘irlik qilib bo‘lmagandir. *O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi*

2. Qo‘li yoki oyog‘i yo‘q; nogiron, invalid. Qo‘li cho‘loq odam.

3. *s. t.* **Oyog‘i siniq, singan (stol, stul va shu kabilar haqida).**

Cho‘loq stul.

CHO‘LOQ so‘zi qatnashgan jumlalar:

Cho‘loq ketmon

Dastasi kalta yoki singan ketmon.

churra

Ichki a’zolardan birining yoki ular bir qismining, masalan, ichakning osilib, biror bo‘shliqqa ichki qorin pardasi bilan turtib chiqib qolishidan iborat kasallik; dabba.

Churra umurtqalararo diskdan chiqadigan bo‘lsa, bel va oyoqlarga og‘riq beradi, harakat cheklanadi. *O‘zME*

CHURRA so‘zi qatnashgan jumlalar:

Churrasi tushmoq

1. Churra kasalligiga yo‘liqmoq.

Orqadan qudasining “huh“, huh deya ketmon urib, loy ag‘darishini eshitganida, ko‘zidan yosh sirqib chiqdi: Churrasi tushib qolmasa edi. *A. Muxtor, Kumush tola;*

2. Katta chiqim qilmoq.

To‘yning o‘zi bo‘ladimi, uncha-munchaning churrasini tushiradi. *Shuhrat, Umr pog‘onalari*

“Dabba [a. – sekin harakatlanish, sudralish; kirib borish] 1 ot Ichki a’zolarning o‘zi joylashib turgan bo‘shliqdan shu bo‘shliq devori orqali tashqariga turtib chiqishi yoki pastga – moyakdonga tushishidan iborat kasallik; churra. 2 Shunday kasallikka chalingan, mubtalo bo‘lgan (odam yoki jonivor). Dabba odam. 3 ko‘chma dag‘l. Sudralgan, yurishmay qolgan ish, kasod bo‘lgan mol; dangasa va ishyoqmas odam va sh. k. haqida”. Lug‘atning uchinchi bandida so‘zning ko‘chma ma’nosi keltirib o‘tilgan va insonga nisbatan qo‘llanilganda undagi dangasalik, ishyoqmaslik xususiyatlarini ifoda etishi keltirib o‘tilgan. Ushbu ko‘chma ma’noni yuzaga keltirgan omil kasallik natijasida harakatlanishning chegaralanishi va sekinlashishidir.

“Moxov [a. – yo‘q qilish, chetlatish] Butun organizmni, xususan, teri, asab sistemasi hamda ichki a’zolarni zararlaydigan surunkali infeksion kasallik; shu kasalga yo‘liqqan shaxs.

Ha, Botir aka, hozir odamlar moxovdan hazar qilgandek mendan qochishadi. S. Ahmad, Saylanma

2 ko‘chma rasvo, yaramas, chatoq: moxov odam, moxov ish.

Moxov odam. Moxov ish. Ishning moxovini chiqarmoq.

Dod deganda ham gap shuki, qiyin ekin, moxov ekin. Gazetadan

3 qarg‘ishni bildiradi. Moxov so‘zi inson xarakter-xususiyatlariga ishora qilib kelganda so‘zning o‘z ma’nosidagi umumdan ajralganlik xususiyati ko‘chma ma’noning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Azaldan moxov kasalligiga chalingan kishilar

umumdan ajratilgan, moxov tarqagan hududlarga kirish taqiqlangan. Kasallikning og‘ir kechishi, yuqumliligi sababli unga chalingan inson hamhar qanday aloqadan chetlatilgan.So‘z inson xarakter-xususiyatiga ishora qilib kelganda ayni shu holat insonlarga qo‘shilmaslik, ular bilan aloqa qilishni istamaslik xususiyati so‘zning ko‘chma ma’nosi inson xarakter-xususiyatini anglatish ma’nosi yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ayni so‘z qarg‘ish, so‘kishni ifodalash uchun qo‘llanilganda ham ayni xarakter-xususiyatlariga ishora qiladi.

Nega jim turibsizlar, uringlar moxov bo‘lgurni! K. Yashin, Hamza

Kuydirgi – odamga hayvonlardan yuqadigan, teri, me’da-ichak va o‘pkaga zarar yetkazadigan o‘tkir yuqumli kasallik (O‘TIL, II, 421). Aniqrog‘i, kuydirgi – yara turi. Kuydirgi natijasida inson va hayvon terisida shikastlangan o‘rinlar paydo bo‘ladi. Jarohat tibbiy amaliyotda kuydirib davolangan. Kuydirgi tibbiy terminida “jarohat”, “og‘riq”, “azob”, “o‘rtash”, “tuzalmas” semalari mavjud. Kuydirgi insonga nisbatan qo‘llanganda ozor yetkazuvchi, zarar yetkazuvchi, “kuydiruvchi” xarakter-xususiyatlariga ishora qiladi. Xarakteri nojoiz, nomaqbul inson nazarda tutiladi. Leksemaning ko‘chma – “xarakter” ma’nosi yo‘lga solish qiyin bo‘lgan, azob-uqubatga giriftor qiladigan faoliyat yig‘indisiga asoslangan. E’tiborga molik jihati shundan iboratki, o‘zbek tilida kasallik nomini ifodalab keluvchi so‘zlar inson xarakter-xususiyatlarini aks ettirishdan tashqari insonda kechuvchi oniy jarayonlar, qarg‘ish, so‘kinish ma’nolarini ham ifodalab kelishi mumkin.

Mening o‘z otim bor! O‘z otimga kuydirgi chiqqan emas! A.Qahhor,Og‘riq

Ammo baxtiga kuydirgi chiqqan ekanmi, xuddi shu kabinetga Jo‘rabekov momaqaldiroqday gumburlab kirib keldi. S. Anorboyev, Oqsoy

Bu so‘zlarni og‘izga olganda, hali ham tilingizga kuydirgi chiqmagan ekan. A.Muxtor, Tong bilan uchrashuv

Quyida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirib o‘tilgan ko‘chma ma’noli kasallik nomlari tahlilini ko‘rib o‘tamiz:

1. Garang qulog‘i eshitmaydigan, kar.

2 ko‘chma boshi qotgan, nima qilishini bilmay gangib qolgan; Lug‘atda keltirib o‘tilgan garang so‘zi insonga nisbatan qo‘llanilganda ikkinchi ko‘chma ma’no sifatida keltirilgan boshi qotish, gangib qolish ma’nolarini, ya’ni insonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatni ifodalaydi va shuning bilan birgalikda gapga tushunmaydigan, bo‘layotgan voqyea-hodisalarning mazmunini anglamaydigan, ularni anglab yetmaydigan insonga va insonga xos xarakter-xususiyatlarga ishora qiladi.

4. 1) qulog‘i bitib, eshitmaydigan, kar bo‘lib qolmoq.

Avtomat tirillashidan garang bo‘lgan o‘n uch nemis baravariga qo‘l ko‘tarib, o‘rnidan turdi. A. Qahhor, Oltin yulduz

5. *ko‘chma* **2) nima qilarini bilmay, gangib qolmoq, gangimoq.**

Bu mol bilan sen ham sarson bo‘lmagin, Behuda o‘zingni garang qilmagin. Alpomish

“Xafagazak [f.1 Yallig‘lanish, gazak olish (yara haqida).]

2 Xafa bo‘lgan, arazlagan holda”. Ushbu so‘z bevosita kasallik nomi sifatida qo‘llanilmasada, insonda sodir bo‘layotgan jarayonni, teri butunligi buzilishini ifodalaydi. Ushbu holatda yaraning yiring bog‘lashi, kattalashishi, undan suv ajralishi kabi holatlar kuzatiladi. Xafagazak so‘zi insonga nisbatan qo‘llanilganda, ikki

xilma’noni aks ettiradi.Birinchima’nosi, insonda yuz beradigan oniy, o‘tkinchi jarayon, ya’ni ma’lum bir vaziyatda ma’lum bir insondan xafa bo‘lish, arazlash ma’nosini aks ettiradi. Ushbu jihat so‘z izohining ikkinchi bandida keltirib o‘tilgan. Shuning bilan birga xafagazak so‘zi inson xarakter-xususiyatiga ham ishora qiladi. Ushbu so‘z orqali tabiatida doimiy arazchilik, kek saqlash xususiyati bor insonlar nazarda tutiladi. “Xafaqon (a. yurak urishi, dukillashi) mungli, g‘amgin, xafahol. 2 Dilsiyohlik bilan o‘tadigan. 3 tib. Yurakning tez yoki notekis urishini sezish holati. 4 tib. Qon bosimining ortishi tufayli yuz beradigan kasallik, gipertoniya”. Xafaqon bo‘lmoq 1) diqqat bo‘lmoq, siqilmoq; xunob bo‘lmoq. 2) qon bosimi ortish kasaliga yo‘liqmoq.— *Bugun seni ko‘rmaganim uchun juda zerikib, xafaqon bo‘lib o‘tirgan edim, — dedi Ra’no Hafizaga. Mirmuhsin, Umid*

Xafaqon so‘zi insonda qon bosimining oshishi bilan kechadigan holat va surunkali tus olganda kasallik nomini ifodalaydi. Insonga nisbatan qo‘llanilganda ham o‘tkinchi holat – bezovtalik, xafalik holatini, inson xarakter-xususiyatlariga ishora qilib kelganda inson tabiatidagi ma’yuslik, g‘amginlik holatini aks ettiradi. **Yurakburug‘, ichburug‘ Ichburug‘** kasalligi insonda og‘ir asoratlar bilan kechadigan ichki kasallik turi. So‘z ko‘chma ma’noda inson tabiatiga ishora qilib kelganda insondagi ko‘ngil kirligi, atrofdagilapga yomonlik tilash bilan bog‘liq xususiyatlarni aks ettiradi.

Quturish, qutirgan “1 Hayvon va odamlarda viruslar qo‘zg‘atadigan, quturgan hayvon tishlaganda yoki so‘lagi tekkanda yuqadigan, markaziy asab sistemasi funksiyasining izdan chiqishi, tomir tortishishi, falajlik, hiqildoq va nafas yo‘li muskullarining spazmi bilan o‘tadigan o‘tkir yuqumli kasallik.

Quturgan bo‘ri. It qutursa, egasini qopadi. Maqol

— E, musulmon, nega qopmaydi, deysiz, bu it quturgan-ku, axir, — dedi To‘qsonov va darrov yonidan qora to‘pponchasini chiqardi. P. Tursun, O‘qituvchi

2 ko‘chma Jon-jaxdi bilan, o‘zinitutolmagan darajada, yovuzlarcha harakat qilmoq.

Belgrad atrofida bo‘layotgan jangda nemislar quturib qarshilik ko‘rsatar edi.

N. Safarov, Don

Dadam quturib, qo‘llariga ilingan narsani uloqtirardilar. E. Raimov, Ajab qishloq

3 ko‘chma Bosar-tusarni bilmay qolmoq, haddan oshmoq.

Ixlosmand ko‘paysa, eshon quturar. Maqol

[Chayqovchi] Quturmay ham nima qilsin. Chayqovchilikda ayblanganlarning ustidan sudlar shu qadar yumshoq hukm chiqaradiki, bilmaysan kishi: jazo berdimi, nasihat qildimi. A. Qahhor

4 ko‘chma Zo‘r kuch, shiddat bilan yuz bermoq, sodir bo‘lmoq; avjiga minmoq”. Quturmoq so‘zi ham insonga nisbatan qo‘llanilganda oniy holat, jahlning haddan oshishi va shu jarayonda amalga oshiriladigan harakatlar, haddidan oshish holatlarini ko‘rsatadi.

Bo‘ron quturmoqda.

Suv quturib kelyapti, paromni chirpirak qilib olib ketadi. S. Ahmad, Iqbol chiroqlari

Ayrim joylarda yong‘in quturib, o‘z o‘ljasini katta ishtaha bilan yutmoqda. Oybek, Quyosh qoraymas

Quturgan shamol tomni uchirib ketgundek uvullaydi. Yoshlik

Kasallik nomlarining ko‘chma ma’noda xarakter ifodalashida ham umumlashtirish holati kuzatiladi. Masalan, arabcha “kasallik” ma’nosidagi **maraz** leksemasi xarakterning muayyan belgisini emas, balki barcha salbiy semali xarakter belgilarini umumlashtirib ifodalaydi: – *Men bu marazni to‘rt yildan beri bilaman. Bu maraz meni to‘rt yildan beri xilvatga tortadi, to‘rt yildan beri qulog‘imga shivirlaydi...*” **“Maraz** [a. kasallik] Yiring olgan, fasod bog‘lagan yara

2 Shu narsaga nisbatli haqoratni bildiradi.

3 ko‘chma Yaramas, zararli nuqson, illat”. (O‘TIL, II, 250.) So‘z izohining uchinchi bandida keltirib o‘tilgan illatlar va umuman shunga o‘xshash illatlarning insonda bo‘lishi ham so‘zning inson xarakter-xususiyatlariga ishora qilishini ta’minlaydi. Maraz so‘zi insonga nisbatan qo‘llanilganda inson xarakterida og‘ir illatlarning borligini bildiradi. So‘z haqorat sifatida qo‘llanilganda ham inson xarakter-xususiyatlariga ishora qiladi. *“Maraz..! – oqsoqol mushtini tugdi. Bolalari o‘ldi, endi qo‘lidan hyech narsa kelmaydi, demoqchi, – ovozi titrab, alam bilan bosh chayqadi”. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – T.: Sharq, 2012. –215-b. 75* Maraz so‘zi kasallik nomi hisoblanadi. Ushbu so‘z inson xarakterini aks ettirish uchun qo‘llanilganda salbiy xususiyatlarni aks ettirishdan tashqari, “tuzalmaslik”, “o‘zgarmaslik” semalari bilan bog‘lanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasallik nomlari nafaqat o‘z ma’nosida ya’ni tibbiyotda ‘ balki og‘zaki va badiiy adabiyotda salbiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun keng foydalanilganini misollar va tahlillar asosida ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi milliy davlat nashriyoti, 2004. – 357-b.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1979. – 238-b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2006. V jild.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2005. XI jild.

5. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.:Akademnashr, 2006. – 253- b.

6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: Fan, 1979. – 278-b.

7. O‘rinboyev B.A., Musayev V.V. Umumiy tilshunoslik. – Jizzax, 2006. – 124-b.

8. Qahhor A. Anor. Hikoyalar to‘plami. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijobiy uyi. – 200-b.

9. O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi/ Rohila Abdullayeva Yusufjon qizi. – T.: «Poytaxt exclusive» nashriyoti, 2022. – 120 b